

Sevgi va fojea: "Layli va Majnun" hamda "Romeo va Juliet" qiyosiy tahlili

Dilshoda Ilhomjon-qizi O'rinboyeva
Nargiza Kotiboy-qizi Sharofiddinova

Ilmiy maslaxatchi: Sayyora Sobitxon-qizi Qozaqova
NamDPI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sharq va G'arb adabiyotida sevgi va fojea muammosi qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida "Layli va Majnun" hamda "Romeo va Julietta" asarlari tanlangan. Tahlil jarayonida Sharq adabiyotida sevgi ilohiy va ma'naviy yuksalish omili sifatida talqin etilishi, G'arb adabiyotida esa sevgi insoniy hissiyot va ijtimoiy qarama-qarshiliklar natijasida yuzaga keladigan fojea sifatida ifodalanishi aniqlanadi. Maqolada qahramon obrazlari, fojea tabiati va madaniy-falsafiy yondashuvlar qiyosiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: sevgi, fojea, qiyosiy adabiyotshunoslik, Sharq adabiyoti, G'arb adabiyoti, Majnun, Romeo va Juliet, ruhiy yuksalish, ijtimoiy konflikt, taqdir

Love and Tragedy: A Comparative Analysis of "Layli and Majnun" and "Romeo and Juliet"

Dilshoda Ilhomjon-kyzi Orinboyeva
Nargiza Kotiboy-kyzi Sharofiddinova

Scientific Advisor: Sayyora Sobitxon-kyzi Kazakova
NamSPI

Abstract: This article provides a comparative analysis of the problem of love and tragedy in Eastern and Western literature. The works Layli va Majnun and Romeo and Juliet are selected as the research object. The analysis shows that in Eastern literature love is interpreted as a divine and spiritual means of moral elevation, whereas in Western literature love is presented as a human emotion that leads to tragedy as a result of social contradictions. The article examines character representation, the nature of tragedy, and cultural-philosophical approaches in a comparative perspective.

Keywords: love, tragedy, comparative literature, Eastern literature, Western literature, Majnun, Romeo and Juliet, spiritual elevation, social conflict, fate

Sevgi mavzusi jahon adabiyotida eng qadimiy va eng universal badiiy muammolardan biri hisoblanadi. Sharq va G'arb adabiy an'alarida bu mavzu turli

falsafiy, ijtimoiy va estetik qarashlar asosida talqin etilgan bo‘lib, u inson ruhiy olami, jamiyat bilan munosabat va taqdir tushunchasini chuqur ochib beradi. Ayniqsa, Sharq adabiyotida “Layli va Majnun” hamda G‘arb adabiyotida “Romeo and Julietta” asarlari sevgi va fojening eng yuksak badiiy namunalaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

“Layli va Majnun” Sharq mumtoz adabiyotida sevgi ilohiy mohiyatga ega bo‘lgan, insonni ma’naviy yuksalishga yetaklovchi kuch sifatida tasvirlanadi. Majnun obrazida insonning dunyoviy bog‘liqliklardan voz kechib, sof ishq orqali ruhiy kamolotga erishishi ifodalanadi. Bu asarda sevgi nafaqat ikki inson o‘rtasidagi hissiy bog‘lanish, balki insonni o‘zligidan kechishga, ichki poklanishga olib boruvchi falsafiy yo‘l sifatida namoyon bo‘ladi. Majnunning jamiyatdan uzilishi, yolg‘izlikda yashashi va Layliga bo‘lgan muhabbati uning ruhiy olamida chuqur o‘zgarishlar yuzaga kelishini ko‘rsatadi.

Alisher Navoiy ijodida ishq masalasi juda keng va chuqur yoritilgan bo‘lib, bu mavzu yuzasidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar va sharhlar yaratilgan. Ayniqsa, uning “Mahbub ul-qulub” asarida ishq uch asosiy darajaga ajratib ko‘rsatiladi: avom ishq, xoslar ishq va siddiqlar ishq.

Avom ishq oddiy insoniy mayllar va hayotiy ehtiyojlarga asoslanadi hamda ko‘pincha nikoh bilan yakun topadi. Xoslar ishq esa ruhiy poklik va ma’naviy yuksaklik bilan bog‘liq bo‘lib, bunda inson go‘zallikni ilohiy tajalli sifatida idrok etadi. Ya’ni, ma’shuqaga bo‘lgan muhabbat aslida Alloh jamolining insondagi aks etishi sifatida talqin qilinadi. Bunday darajadagi oshiq uchun tashqi jismoniy shakl ikkinchi darajali bo‘lib, u ma’shuqaning ichki, ruhiy mohiyatini anglashga intiladi. Siddiqlar ishq esa eng oliy bosqich bo‘lib, bevosita Allohga yo‘naltirilgan ilohiy muhabbatni anglatadi va u payg‘ambarlar hamda avliyolarga xos deb qaraladi.

“Layli va Majnun” dostonida aynan xoslar ishqining badiiy talqini mujassam etilgan. Biroq bugungi kunda ayrimlar ushbu asarni oddiy insoniy sevgi – avom ishq darajasida talqin qilish holatlari ham uchrab turadi. Asarni sinchiklab o‘qigan kishi unda ikki yoshning oddiy dunyoviy muhabbati emas, balki chuqur ma’naviy-ruhoniylar mazmun yotganini anglaydi.

Dostonning “Hamd” qismida Allohga murojaat orqali Layli obrazining ilohiy tajalli sifatidagi talqini beriladi. Unda mazmunan shunday g‘oya ilgari suriladi: ilohiy nur qayerda zuhur etsa, u turli shakllarda, jumladan Layli siymosida ham namoyon bo‘ladi. Shu bois Layli faqat go‘zal qiz timsoli emas, balki ilohiy go‘zallikning ramziy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Asarda Majnun ham oddiy oshiq sifatida emas, balki tug‘ma ishq bilan yashaydigan, ruhiy izzat ichida dunyoga kelgan siymo sifatida tasvirlanadi. Uning bolalik davridan boshlab seziladigan g‘amgin holati, olovga o‘xshash ichki ishq alomati sifatida talqin qilinadi. Bu esa uning muhabbati tasodifiy emas, balki ilohiy manbaga ega ekanini ko‘rsatadi.

Avom ishqida sevgi ko‘pincha ko‘rish va tanishishdan so‘ng boshlansa, “Layli va Majnun”da Majnun muhabbati tug‘ma va oldindan mavjud holat sifatida beriladi. Layli bilan uchrashuv esa unga huzur emas, balki yanada chuqur ruhiy iztirob olib keladi. Bu holat xoslar ishqiga xos bo‘lib, unda oshiq moddiy vasl emas, balki ma‘naviy yo‘qotilish orqali ilohiy haqiqatga yaqinlashadi.

Majnunning tabiatga, gul, g‘uncha, sarv va boshqa unsurlarga murojaat qilib Laylini izlash sahnalari ham ramziy ma‘noga ega bo‘lib, butun borliq ilohiy zarralardan tashkil topganligi haqidagi tasavvurni ifodalaydi.

“Romeo va Juliet” esa G‘arb adabiyotida sevgi va ijtimoiy qarama-qarshiliklar fonida yuzaga kelgan fojeaviy voqeani ifodalaydi. Ushbu asarda ikki yoshning muhabbati oilaviy adovat va jamiyatdagi ziddiyatlar tufayli fojia bilan yakun topadi. Bu yerda sevgi insonning individual hissiy tanlovi sifatida namoyon bo‘lib, u ijtimoiy muhit bilan keskin to‘qnashuvga kirishadi. Natijada sevishganlarning taqdiri fojea bilan tugaydi, bu esa inson erkinligi va ijtimoiy cheklovlar o‘rtasidagi ziddiyatni ochib beradi.

Sharq va G‘arb adabiyotida sevgi konsepsiyasi o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud. Sharq adabiyotida sevgi ko‘proq ruhiy va ilohiy mazmunga ega bo‘lib, insonni ma‘naviy yuksalishga olib boradi. Majnun obrazi orqali sevgi insonni jamiyatdan uzib, uni ichki dunyo bilan birlashtiruvchi kuch sifatida talqin qilinadi. G‘arb adabiyotida esa sevgi real hayotiy muammolar bilan bog‘liq bo‘lib, ijtimoiy to‘siqlar, oilaviy qarama-qarshiliklar va shaxsiy tanlovlar asosida rivojlanadi.

Fojea tasviri ham har ikki asarda o‘zgacha talqin etiladi. “Layli va Majnun”da fojea ichki, ruhiy xarakterga ega bo‘lib, Majnunning dunyodan uzilishi va ma‘naviy iztiroblari orqali ifodalanadi. Bu yerda fojea sevgi orqali yuksalish jarayoni sifatida qaraladi. “Romeo va Juliet”da esa fojea tashqi ijtimoiy omillar natijasida yuzaga keladi. Oilaviy dushmanlik va jamiyatdagi qarama-qarshiliklar sevishganlarning halokatiga sabab bo‘ladi.

Ikkala asarda ham sevgi markaziy mavzu bo‘lib, u inson hayotining eng muhim kuchlaridan biri sifatida tasvirlanadi. Har ikki asarda yosh sevishganlar jamiyat yoki taqdir qarshiligiga uchraydi va natijada fojeaviy yakun bilan tugaydi. Biroq Sharq adabiyotida sevgi insonni ma‘naviy kamolotga yetaklovchi kuch sifatida qaralsa, G‘arb adabiyotida u ko‘proq ijtimoiy konflikt va insoniy fojia manbai sifatida namoyon bo‘ladi.

Taqdir masalasi ham muhim o‘rin tutadi. Sharq adabiyotida taqdir ilohiy tizim sifatida qabul qilinadi va inson unga sabr bilan munosabat bildiradi. Majnun taqdirni inkor qilmaydi, aksincha, uni ruhiy holat sifatida qabul qiladi. G‘arb adabiyotida esa inson o‘z tanlovi va ijtimoiy sharoitlar ta‘sirida harakat qiladi, biroq natijada u ham fojeadan qochib qutula olmaydi.

Xulosa qilib aytganda, "Layli va Majnun" hamda "Romeo va Juliet" asarlari sevgi va fojea mavzusini turli madaniy-falsafiy qarashlar asosida yoritadi. Sharq adabiyotida sevgi ruhiy va ilohiy yuksalish vositasi bo'lsa, G'arb adabiyotida u inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab ziddiyatlar natijasida yuzaga keladigan fojea sifatida talqin etiladi. Har ikki asar ham insoniyatning eng chuqur hissiyotlarini ifodalab, jahon adabiyotining bebaho durdonalari sifatida o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Fan, 1996.
2. X.Mamatqulova Navoiyning "Layli va Majnun", Shekspirning "Romeo va Julietta" asarlarining qiyosiy tadqiqi. – Samarqand, 2010.
3. Shekspir. Romeo va Julietta. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashiryoti. 2001.
4. Uilyam Shekspirning "Romeo va Julietta" asari haqida maqola <https://zenodo.org/records/6415876>
5. Umarov, D., & Tojimatova, Z. (2023). INTERPRETATION OF THE HERO OF A LITERARY WORK. *Modern Science and Research*, 2(6), 1104-1106.
6. Umarov, D. (2023). THE IMPORTANCE OF LITERARY CRITICISM ARTICLES IN LITERARY STUDIES. *Modern Science and Research*, 2(6), 848-853.
7. Tojimatova, Z., & Umarov, D. (2023). THE HISTORY AND DEVELOPMENT OF "WOMEN'S LITERATURE" IN LITERARY STUDIES. *Modern Science and Research*, 2(6), 1099–1103. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/scienceresearch/article/view/21485>.
8. Qozaqova, S. (2025, July). "BOBURNOMA" STRUKTURASIDA MAQOLLARNING O'RNI. In *Conferences (Vol. 1, No. 1)*.
9. Qozaqova, S. (2023). HIKOYA TUZISHGA O'RGATISH MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BOG'LANISHLI NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM VOSITASI SIFATIDA. *Philological issues are in the eyes of young researchers*, 1(1).
10. Qizi, Q. S. S. (2024). MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNING BOG 'LANISHLI NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 4(7S), 498-501.
11. Kamolova, AOQ (2026). O'qituvchining shaxsiyati va uning pedagogik faoliyat samaradorligiga ta'siri. *Fan, texnologiya va ta'lim akademik jurnali* , 2 (4), 67-69.
12. Nuritdinova, G. I. Q., & Kamalova, A. (2026). O'SMIR YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOY KOMPOTENTLIGI. *Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi*, (2), 27-29.

13. Kamolova, A. O. Q., & Murodullayev, A. (2026). Lider va tashkilotchi yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo 'llabquvvatlash. *Science and Education*, 7(2), 220-223.
14. Ismatullayeva, S. T. Q., & Kamolova, A. O. (2026). Pedagoglarni kasbiy rivojlanishlarida nazariy va amaliyotning ahamiyati. *Science and Education*, 7(2), 540-542.